BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA KASBIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH JARAYONIDA SOTSIOMETRIK MUNOSABATLARGA TAYYORLASH MEXANIZMLARI

Komiljonova Mohinur
Urganch Davlat universtiteti 3-bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy madaniyatni shakllantirish jarayonida ularni sotsiometrik munosabatlarga tayyorlashning pedagogik mexanizmlari yoritilgan. Kasbiy kompetensiyani rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: bo‘lajak o‘qituvchi, kasbiy madaniyat, sotsiometriya, pedagogik tayyorgarlik, kompetensiya, ta'lim.

Аннотация. В статье рассматриваются механизмы подготовки будущих учителей к социометрическим отношениям в процессе формирования профессиональной культуры. Анализируются современные подходы к развитию профессиональной компетентности.

Ключевые слова: будущий учитель, профессиональная культура, социометрия, профессиональная подготовка, компетентность.

Abstract. The article examines the mechanisms for preparing future teachers for sociometric relations during the formation of their professional culture. Modern approaches to developing professional competence are analyzed.

Keywords: future teacher, professional culture, sociometry, teacher training, professional competence.

Bo‘lajak o‘qituvchi pedagogik madaniyati tizimida sotsiometrik munosabatlarni rivojlantirish muhim o‘rin tutadi. Chunki pedagogik madaniyat faqat o‘qituvchining bilimdonligi, metodik mahorati yoki kasbiy tayyorgarligi bilan cheklanmaydi. Uning tarkibida insonparvarlik pozitsiyasi, muloqot madaniyati, o‘quvchi shaxsiga hurmat, jamoada sog‘lom psixologik muhit yaratish, hamkorlikni tashkil etish va har bir ta’lim oluvchining ijtimoiy mavqeini inobatga olish kabi sifatlar ham mavjud. Shu jihatdan sotsiometrik munosabatlar bo‘lajak o‘qituvchining pedagogik madaniyatini amaliy jihatdan ifodalovchi muhim ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi.

Sotsiometrik munosabatlar deganda ta’lim jarayoni ishtirokchilari

o‘rtasidagi o‘zaro tanlash, yoqtirish, ishonch bildirish, hamkorlik qilish, yetakchilikni qabul qilish, guruhdagi mavqe va emotsional yaqinlik darajalari anglashiladi. Bo‘lajak o‘qituvchi uchun bu munosabatlarni anglash va boshqarish juda muhimdir. Chunki sinf yoki talabalar guruhi oddiy o‘quvchilar yig‘indisi emas, balki o‘zaro ta’sir, munosabat, maqom va psixologik aloqalar tizimidir. Agar o‘qituvchi bu tizimni to‘g‘ri tahlil qila olsa, u sinfda ijobiy muhit yaratadi, chetda qolgan, tortinadigan yoki muloqotda qiynaladigan o‘quvchilarni jamoaga qo‘shadi, nizoli vaziyatlarni yumshatadi va hamkorlikka asoslangan ta’lim jarayonini tashkil etadi.

Pedagogik madaniyat tizimida sotsiometrik munosabatlarning o‘rni, avvalo, o‘qituvchining shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvda namoyon bo‘ladi. Pedagog madaniyatli bo‘lishi uchun u har bir o‘quvchining individual xususiyatlarini, guruhdagi o‘rnini, tengdoshlari bilan munosabatini, muloqotga kirishish darajasini va emotsional holatini seza olishi kerak. Bu esa o‘qituvchidan kuzatuvchanlik, empatiya, pedagogik takt, adolatli munosabat va psixologik sezgirlikni talab etadi.

Sotsiometrik munosabatlar bo‘lajak o‘qituvchining kommunikativ madaniyatini ham rivojlantiradi. Chunki pedagogik faoliyatning asosi muloqotdir. O‘qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki o‘quvchilar o‘rtasidagi ijtimoiy aloqalarni muvofiqlashtiruvchi, jamoani birlashtiruvchi, ijobiy munosabatlar madaniyatini shakllantiruvchi shaxsdir. Shu sababli bo‘lajak o‘qituvchi talabalik davridayoq guruh bilan ishlash, jamoaviy muhokamalarni tashkil etish, juftlik va kichik guruhlarda hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, muloqotda tenglik va hurmat tamoyillariga rioya qilishni o‘rganishi lozim.

Sotsiometrik munosabatlarni rivojlantirishning birinchi pedagogik mexanizmi diagnostik mexanizmdir. Bu mexanizm orqali bo‘lajak o‘qituvchi o‘quvchilar yoki talabalar guruhidagi munosabatlar tizimini o‘rganadi. Masalan, qaysi o‘quvchilar sinfda yetakchilik qilayapti, qaysilari faol, fanday sifatlarga ega bo‘lgan o‘quvchilar chetda qolayapti, o‘quvchilar qaysi sinfdoshlari bilan hamkorlikka oson kirishayaptilar va qaysi tengdoshlari bilan ziddiyatga borayaptilar. Bu jarayonda sotsiometrik so‘rovlar, kuzatish, suhbat, refleksiv topshiriqlar, guruhiy faoliyat natijalarini tahlil qilish usullaridan foydalaniladi. Diagnostika o‘qituvchiga har bir o‘quvchining jamoadagi o‘rnini bilish va navbatdagi pedagogik jarayonni muvaffaqiyatli loyihalash imkonini beradi.

Kommunikativ-hamkorlik mexanizmi. U orqali o‘quvchilar o‘rtasida ijobiy muloqot, o‘zaro ishonch, bir-birini eshitish va fikrini hurmat qilish madaniyati shakllantiriladi. Bunda “aqliy hujum”, “davra suhbati”, “juftlikda ishlash”, “kichik guruhlarda loyiha bajarish”, “rolli o‘yin-

lar”, “muammoli vaziyatni muhokama qilish” kabi metodlardan tizimli tarzda foydalanish tavsiya etiladi. Bu usullar orqali o‘quvchilar bir-birini yaxshiroq tanishadi, fikr almashadi, hamkorlik qiladi va guruhda ijobiy psixologik muhit vujudga keladi.

Refleksiv mexanizm. Bu mexanizm bo‘lajak o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘z munosabatlarini anglashi, tahlil qilishi va baholashiga xizmat qiladi. Masalan, mashg‘ulot oxirida “Men guruhda qanday ishtirok etdim?”, “Kimning fikri menga ta’sir qildi?”, “Men kim bilan samarali hamkorlik qildim?”, “Kimga yordam berdim yoki kimdan yordam oldim?” kabi savollar asosida refleksiya jarayonlari tashkil etiladi. Refleksiya sotsiometrik munosabatlarni ongli ravishda rivojlantirishga yordam beradi.

Emotsional-qadriyatli mexanizm. Bu mexanizm o‘quvchilar o‘rtasida mehr-oqibat, hurmat, ishonch, hamdardlik, mas’uliyat va jamoaviylik hissini shakllantirishga qaratilgan. Bo‘lajak o‘qituvchi pedagogik madaniyat sohibi sifatida pedagogik amaliyot davrida har bir o‘quvchi o‘zini sinfda kerakli, qadrli va himoyalangan his qilishiga e’tibor qaratishi lozim. Buning uchun bo‘lajak o‘qituvchi pedagogik qo‘llab-quvvatlash, adolatli munosabat, ijobiy fikr bildirish, kichik yutuqlarni e’tirof etish kabi pedagogik ta’sir vositalarini qo‘llash kompetensiyasiga ega bo‘lishi kerak.

Ijtimoiy-faoliyat mexanizmi. Sotsiometrik munosabatlar suhbat, dialog, nazariy tushuntirish bilan bir qatorda birgalikdagi faoliyat jarayonida shakllanadi. Shuning uchun bo‘lajak o‘qituvchi o‘quvchilarni umumiy maqsadga yo‘naltirilgan faoliyatga jalb etishi kerak. Jamoaviy loyihalar, ijodiy ishlar, sahna ko‘rinishlari, tadqiqotchilikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan topshiriqlar, sport va ommaviy, ma’naviy, ma’rifiy tadbirlar o‘quvchilar o‘rtasidagi munosabatlarni mustahkamlaydi. Birgalikdagi faoliyat davomida o‘quvchilar bir-biri bilan yaqindan tanishadi, mas’uliyatni taqsimlaydi va ular orasida o‘zaro ishonchni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Nizolarni pedagogik boshqarish mexanizmi. Har ta’lim maussasasi, undagi o‘quvchilar jamoasi orasida kelishmovchilik, tushunmovchilik yoki raqobat holatlari bo‘lishi mumkin. Pedagogik madaniyatga ega o‘qituvchi bunday vaziyatlarni kuch bilan emas, balki muloqot, tushuntirish, mediativ yondashuv, adolatli tahlil va kelishuv asosida hal etadi. Bo‘lajak o‘qituvchi nizoli vaziyatlarda o‘quvchilarni bir-birini tinglashga, dalil keltirishga, kechirim so‘rashga, murosa qilishga va umumiy yechim topishga o‘rgatishi lozim.

Inklyuziv-pedagogik mexanizm. Bu mexanizm guruhda chetda qolgan, kamgap, kamtarin, yolg‘izlik yoki kichik guruhda faoliyat ko‘rsatish-

ni xush ko‘radigan, o‘z imkoniyatiga ishonchi past yoki ijtimoiy faolligi sust o‘quvchilarni jamoaviy faoliyatga jalb etishni nazarda tutadi. O‘qituvchi bunday o‘quvchilarga majburiy bosim o‘tkazmasdan, ularga qulay rol berish, kichik guruhlarda ishlash imkonini yaratish, dastlab oddiy topshiriqlar orqali faollashtirish va ijobiy qo‘llab-quvvatlash orqali ularning jamoadagi mavqeini oshiradi.

Bo‘lajak o‘qituvchi pedagogik madaniyatida sotsiometrik munosabatlarni rivojlantirishning yana bir muhim jihati liderlik va hamkorlik muvozanatini ta’minlashdan iborat. Ayrim o‘quvchilar tabiyapn yetakchikka moyil bo‘ladilar. O‘qituvchi ularning ijobiy ta’siridan foydalanishi, biroq boshqalarning soyasida qolib ketishiga yo‘l qo‘ymasligi lozim. Shuning uchun guruhli faoliyat jarayonida ishlarda rollarni almashtirish, har bir o‘quvchiga rahbar, taqdimotchi, kuzatuvchi, tahlilchi yoki ijodkor vazifasini berish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak o‘qituvchi pedagogik madaniyati tizimida sotsiometrik munosabatlarni rivojlantirish o‘quvchilar jamoasini to‘g‘ri boshqarish, sog‘lom psixologik muhit yaratish, har bir shaxsning ijtimoiy faolligini oshirish va ta’lim- tarbiya jarayonini insonparvarlashtirishning muhim shartidir. Bu jarayon diagnostik, kommunikativ, refleksiv, emotsional- qadriyatli, ijtimoiy-faoliyatli, nizolarni boshqarish va inklyuziv mexanizmlar orqali amalga oshiriladi. Ana shu mexanizmlarni puxta egallagan bo‘lajak o‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki o‘quvchilar o‘rtasida hamkorlik, ishonch, hurmat va ijtimoiy birdamlik muhitini yarata oladigan madaniyatli pedagog sifatida shakllanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Safarova R.G. O‘iqtuvchi-o‘quvchi orasidagi sotsiometrik munosabatlarni rivojlantirish mexanizmlari // “Pedagogika” jurnali. 2026-yil, 1-son. 26-30-b.

2. Moreno Ya.L. Sotsiometriya: eksperimentalnыy metod i nauka ob obщestve / Per. s angl. A. Bokovikova. - M.: Akademicheskiy proekt, 2004. - 315 s.

3. Levin Kurt. Dinamicheskaya psixologiya: izbrannыe trudы. - M.: Smыsl, 2001. - 572 s. 4. Rodjers K. Klient-sentrirovannaya psixoterapiya: teoriya, sovremennaya praktika i primenenie. - M.: Psixoterapiya, 2007. - 560 s.